
Psycho-physiological phenomena and psycholinguistic processes in teaching foreign languages to students within the framework of a socio-cultural approach

Shodiyeva Nasiba Nurtosh qizi
nasibashodiyeva18@gmail.com

PhD student,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation

The article examines psychophysiological phenomena and psycholinguistic processes in teaching foreign languages to students within the framework of a sociocultural approach. It analyzes the role of perception, attention, memory, thinking, emotional stability, and motivation in the formation and development of speech activity. The importance of learners' individual psychological characteristics, cognitive strategies, and reflective abilities for successful foreign language acquisition is emphasized. From a psycholinguistic perspective, the mechanisms of speech production and comprehension, the interrelation between language and thinking, and the stages of inner speech formation are described. Special attention is paid to the influence of the sociocultural environment, authentic communicative situations, and intercultural interaction on the development of communicative competence. The effectiveness of interactive methods, problem-based tasks, collaborative learning technologies, and authentic materials is substantiated. The findings contribute to improving foreign language teaching methodology in higher education and provide a theoretical basis for further research and practical recommendations.

Keywords

Socio-cultural approach, foreign language teaching methodology, psycho-physiological processes, psycholinguistics, speech activity, communicative competence, intercultural communication, language and cognition, motivation

Talabalarga ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida chet til o'rgatish metodikasining psixofiziologik hodisa va psixolingvistik jarayonlari xususida

Shodiyeva Nasiba Nurtosh qizi
nasibashodiyeva18@gmail.com

Tayanch doktorant,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarga ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida chet til o'rgatish metodikasining psixofiziologik hodisalari va psixolingvistik jarayonlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq faoliyatining shakllanishi va rivojlanishida idrok, diqqat, xotira, tafakkur, emotsional barqarorlik hamda motivatsiya kabi omillarning o'рни ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, talabaning individual-psixologik xususiyatlari, kognitiv strategiyalari va refleksiv qobiliyatlari chet tilni samarali o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan nutqni ishlab chiqish va uni qabul qilish mexanizmlari, til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda ichki nutqning shakllanish bosqichlari

izohlanadi. Ijtimoiy-madaniy muhit, autentik kommunikativ vaziyatlar va madaniyatlararo muloqotning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli alohida yoritiladi. Maqolada interaktiv metodlar, muammoli topshiriqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamda autentik materiallardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida chet til o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish va metodik yondashuvlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu xulosalar amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi va innovatsion metodlarni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar *Ijtimoiy-madaniy yondashuv, chet til o'qitish metodikasi, psixofiziologik jarayonlar, psixolingvistika, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, til va tafakkur, motivatsiya*

Психофизиологические явления и психолингвистические процессы методики обучения иностранному языку студентов на основе социокультурного подхода

Шодиева Насиба Нуртош кизи
nasibashodiyeva18@gmail.com

Докторант,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В статье рассматриваются психофизиологические явления и психолингвистические процессы в методике обучения иностранному языку студентов на основе социокультурного подхода. Анализируется роль восприятия, внимания, памяти, мышления, эмоциональной устойчивости и мотивации в формировании и развитии речевой деятельности. Подчеркивается значение индивидуально-психологических особенностей обучающихся, их когнитивных стратегий и рефлексивных умений для успешного овладения иностранным языком. С психолингвистической точки зрения раскрываются механизмы порождения и восприятия речи, взаимосвязь языка и мышления, а также этапы формирования внутренней речи. Особое внимание уделяется влиянию социокультурной среды, аутентичных коммуникативных ситуаций и межкультурного взаимодействия на развитие коммуникативной компетенции студентов. Обосновывается эффективность использования интерактивных методов, проблемных заданий, технологий сотрудничества и аутентичных материалов. Результаты исследования направлены на совершенствование методики преподавания иностранных языков в системе высшего образования и оптимизацию образовательного процесса. Полученные выводы могут служить теоретической базой для дальнейших исследований и разработки практических рекомендаций.*

Ключевые слова *Социокультурный подход, методика обучения иностранному языку, психофизиологические процессы, психолингвистика, речевая деятельность,*

коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация, язык и мышление, мотивация

Kirish

Til – bu faqat so'z boyligi va grammatikani tartibga soluvchi qoidalar majmuasi emas, balki muloqot vositasidir. Bugungi o'zaro bog'langan dunyoda tilni kundalik hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati o'quvchilar uchun juda muhimdir. An'anaviy metodlar yodlash va grammatik aniqlikka urg'u bergan holda tilni o'rgatishga qaratilgan bo'lsa, kommunikativ kompetensiya esa o'quvchilarning turli ijtimoiy va professional muhitlarda mazmunli muloqot qila olish layoqatini rivojlantirishga qaratilgan.

"Kompetensiya" umumilmiy tushuncha sifatida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Turli fan sohalarida ushbu tushunchaga har xil yondashuvlar mavjud bo'lib, har bir mamlakatda bu termin turlicha talqin qilinishi kuzatiladi. Masalan, rus olimlarining lingvodidaktika bo'yicha qarashlariga ko'ra (Gez, Zimnyaya, 2006), kompetensiya nafaqat bilimlarga, balki amaliy ko'nikma va malakalarga, ya'ni olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatiga ham ega bo'lishni anglatadi.

G.K. Selevko kompetensiyani ta'lim jarayonining natijasi sifatida ko'rib, talabalar o'z bilim va ko'nikmalaridan real sharoitda foydalana olishi, belgilangan vazifalarni bajara bilishi va atrof-muhitni o'zgartirishga qodir bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. U kompetentlikni shaxsning bilim va tajribaga asoslangan holda mustaqil va samarali faoliyat yuritish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida esa "kompetensiya", "qobiliyat", "bilim" va "xulq-atvor" tushunchalarini talqin qilishda turli xil nuqtai nazarlar mavjud (Селевко, 2005).

Kompetensiyani egallash – bu o'zlashtirilgan bilim va tajribani muayyan

vaziyatda samarali qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Kompetensiya uni shakllantiruvchi shart-sharoitlarsiz yuzaga kelmaydi. Shu bilan birga, u ma'lum faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va odatiy munosabatlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasidir. Bu borada filologiya va psixologiya fanlari doktori, akademik Aleksey Alekseyevich Leyontev kompetensiya tushunchasi mutaxassis tayyorlash jarayoni bilan bog'liq bo'lib, uni bilim, ko'nikma va umumiy malakalarni amaliyotda qo'llay olish layoqati sifatida izohlaydi (Леонтьев, 1972).

O'zbekiston Respublikasining yetakchi olimlaridan, professor Jalolov Jamol Jalolovich kommunikativ kompetensiya xususida shunday yozadi: "Chet til kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash layoqati" (Jalolov, 2013). Kommunikatsiya tushunchasi esa ko'pgina yosh mutaxassislar tomonidan "suhbatdosh" yoki "kim bilandir gaplashmoq" kabi xato tarzda yuritilib kelinmoqda. Aslida, **"kommunikatsiya"** atamasi lotincha **"communicatio"** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, muloqot, muomala, xabar, nutqiy aloqa va fikr almashish kabi ma'nolarni anglatadi. Har qanday insoniy faoliyat boshqalar bilan bevosita yoki bilvosita munosabatlar orqali amalga oshadi va bu jarayonda verbal hamda nonverbal kommunikatsiya muhim rol o'ynaydi (Jalolov, 2013).

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi orqali chet til o'qitish metodikasidan ma'lum bo'lgan to'rtta nutq faoliyati, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalaridan erkin foydalana olish nazarda tutiladi. Muloqot chog'ida tinglovchi hamda gapiruvchi har ikkisi ham yuqorida sanab o'tilgan nutq malakalaridan foydalanadilar.

Xorij olimlarining fikrlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, L.A. Arasaratnam, A.A. Kedrovich va F. Gandolfi kabilar kommunikativ kompetensiya shaxsning nutqiy malakalari yuqori darajada shakllanganligi, madaniyatlararo aloqalarda turli e'tiqod, qadriyat va me'yorlarni inobatga olgan holda chet tilda samarali muloqot qila olish qobiliyati sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, bu kompetensiya muloqot uslubi va odobining shakllanganligi bilan ham bog'liq (Gandolfi, 2012).

Xalqaro miqyosda chet til o'qitish bo'yicha mutaxassislar kommunikativ malakalarni shakllantirish borasida turli fikrlarni ilgari surishgan. Jumladan, Anatoliy Nikolayevich Shukin "kommunikant" terminiga nutqni idrok qiluvchi hamda sodir etuvchi shaxslar o'rtasidagi muloqot jarayoni deya ta'rif keltirib o'tgan (Щукин, 2006). Bu termin o'zbek tilida ilk bor 2013-yilda ta'riflangan. Ushbu ta'rifga ko'ra, kommunikant tushunchasi nutq faoliyatining to'rtta asosiy turida ishtirok etuvchilarni o'z ichiga oladi, ya'ni, tinglovchi, o'quvchi, gapiruvchi va yozuvchi fikr almashishda ishtirok etuvchi subyektlar sifatida kommunikant deb ataladi (Jalolov, 2013).

Muloqot ishtirokchilari mazmuni ongli ravishda idrok etishga intilganida, bu jarayon kommunikativ faoliyat deb ataladi. Aniqroq aytganda, bu hodisa nutqiy kommunikatsiya sifatida namoyon bo'ladi (Соколов, 1968). Muloqot jarayoni esa til birliklari va nutqiy amallarni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, har qanday nutqiy muloqot shaxsning madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu bois, til o'rganish jarayonida shaxs ikkilamchi yoki uchlamchi lisoniy shaxs sifatida til va madaniyatni birgalikda o'zlashtirishi lingvodidaktik jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Kommunikant shaxsining shakllanishida CEFR talablariga muvofiq quyidagi kompetensiyalar egallanishi muhim sanaladi. Xususan, lingvistik kompetensiya (Linguistic competence) kommunikantning til materialini (leksika, grammatika, talaffuz) hamda nutq

faoliyati turlarini (tinglab tushunish, o'qish, gapirish, yozish) puxta o'zlashtirishini nazarda tutadi. Amerikalik mashhur olim Noam Chomskiyning ta'kidlashicha, lingvistik kompetensiya talaba til materialini amaliy muloqot jarayonida samarali qo'llay olishi demakdir (Chomsky, 2006)

Ruhshunoslik, tilshunoslik, pedagogika va metodika fanlari o'zaro bog'liqdir, shuningdek, bu fanlarga nisbatan biroz yangi soha hisoblanmish lingvofiziologiyada shaxslar nutqi va psixolingvistika fanida esa nutqning idrok qilinishi/sodir etilishi o'rganiladi. O'quvchi/talaba, yoshu/qari, kim bo'lishidan qat'iy nazar barcha til o'rganuvchilar tilni o'zlashtirish/egallash mobaynida o'ziga xos tarzda psixofiziologik jarayonni boshidan kechiradi. Bu jarayonni quyidagicha izohlash mumkin: psixologiya ilmidan hammamizga ma'lumki, insonda jami oltita analizatorlar mavjud bo'lib, bular: eshitish, ko'ruv, nutq-harakat, qo'l-harakat, hid bilish va ta'm bilishlardir. Til o'rganishda eshitish, ko'ruv, nutq-harakat va qo'l-harakat analizatorlari faol ishtirok etadi. Gapirish malakasini rivojlantirishda nutq-harakat analizatori yetakchi vazifani bajarib, eshituv analizatori qo'shimcha o'rinda turadi, yoki o'qish malakasini takomillashtirishda esa, ko'ruv analizatori asosiy hisoblansa eshituv analizatori yordamchi hisoblanadi. Inson tafakkuridagi axborotni u analizatoridan bu analizatorga signallar uzatadi. Signal – bu tashuvchi, uzatuvchi degan ma'noni bildiradi. Professor/ruhshunos Nikolay Ivanovich Jinkin "Nutq mexanizmlari" nomli asarida signal, analizator, nutqning idrok qilinishi kabi psixofiziologik tushunchalar haqida batafsil yoritgan (Жинкин, 1958).

Mexanizm – tilga oid aqliy operatsiya va amallar yig'indisidir" (Бермана, Бухбиндера, 1977). Nutq faoliyat turlarining psixofiziologik mexanizmlari xususida pedagogika fanlari doktori, professor E.I. Passov (1989) fikricha, talabalarda retseptiv nutq faoliyat bo'lmish o'qishni amalga oshirish uchun ularda tegishli bir qator psixofiziologik mexanizmlar

shakllangan bo'lishi kerak. Tinglash oid mexanizmlar, fikr mulohazalar ma'lum darajada o'qishga oid bo'lsada, lekin shunisi borki, bir xil mexanizm o'qish va tinglab tushunishda farqli tarzda qo'llaniladi, sababi shundaki grafik matn ya'nikim nutqni ko'rish yoki audio matn (nutqni eshitish) orqali idrok etiladi.

Oldindan fahmlash (antisipatsiya) – o'qishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanib bunda matn mazmunini emas balki strukturasi oldindan fahmlash nazarda tutiladi. Keyingi mexanizm **tahminiy fahmlash** sanalib, bunda xotira stereotiplarida to'liq saqlanmagan lug'atning ma'nosini tahmin qilishga to'g'ri keladi va buni o'qituvchi dars davomida tegishli mashqlar yordamida shakllantiradi. **Mantiqiy tushunish** mexanizmida ko'ruv analizatori asosida matnni ma'noviy qismlarga bo'lib, ularning g'oyasi/mazmunini tushunib olish zarur sanaladi. Navbatdagi, so'nggi **ichki nutqiy eshituv** mexanizmi shakllantirish uchun dastlab, ta'limda ovoz chiqarib o'qishga urg'u beriladi va asta – sekin nutqiy harakatlar kamaytirib boriladi, shu orqali matnni tushunish va idrok qilish jarayoniga ya'ni tashqi harakatlarning ichki harakatga aylanishga (interiorizatsiyasiga) erishiladi. Eslatib o'tishimiz joizki, matnni ovoz chiqarib o'qiganda o'quvchi/talabanning o'qish texnikasi shakllantiriladi. Matn mazmunidan ko'ra so'zlarni qanday o'qilishi jihatiga e'tibor qaratiladi. Ovoz chiqarmay o'qilganda ichki nuqt hodisasi ro'y beradi. Bu mexanizmlarni shakllantirish o'qish malakasining o'sishiga samarali xizmat qiladigan hatti-harakatlardir.

Produktiv nutq faoliyati sanalmish gapirishni o'rgatishdagi ta'limiy vazifalardan biri – bu uning psixofiziologik mexanizmlarini shakllantirishdan iboratdir. Mashhur psixofiziolog A.R. Luriya "Biz nutqiy tafakkurning dinamik jihatdan asos bo'ladigan fiziologik mexanizmlarni tushunishdan juda yiroqmiz. Shunga qaramay, nutq mexanizmlari haqida (hech bo'lmaganda mavjud darajada) tasavvurga ega bo'lish foydali, hatto zarurdir. Zero, aynan psixofiziologik mexanizmlarning

faoliyati orqali nutqqa zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi" deya ta'kidlagan.

Talabada chet tilda nutqni o'rganish jarayonida bir qancha psixik jarayonlar sodir bo'ladi. Chet til o'rganishdagi psixik jarayonlar sarasiga kiruvchi **diqqat** ongning muayyan obyektga yoki hodisaga yo'naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shaklidir. Olimlar tomonidan diqqat tushunchasiga bir qancha ta'riflar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin, misol tariqasda P.I. Ivanov diqqat ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga qaratilganligi ta'kidlab o'tgan. N.F. Gonobolin, M.V. Gamezo, I.V. Straxov, N.V. Kuzmina, F.N. Dobrininlar diqqatning vujudga kelishida ongning bir nuqtaga yig'ilishini va shu bilan ong doirasini torayishi haqidagi fikrni ilgari surishganlar. K.D. Ushinskiyning "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari shu qadar o'rinliki, haqiqatdan ham diqqat eshigidan kirolmagan narsalar ongimizga yetib kela olmaydi (Xaydarov, Xalilova, 2009).

Diqqat o'z navbatida ikki turga bo'linadi ya'ni ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Ular ongning ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi, ya'ni ixtiyoriy diqqatda ong ishtirok etadi, ixtiyorsizda esa aksincha. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, odam diqqatini bir vaqtning o'zida faqat bitta emas, balki ikki yoki uchta narsaga ham qaratishi mumkin. Bunday holatlarda diqqatning bo'linishi yuzaga keladi. Ya'ni, agar biz diqqatimizni bir vaqtning o'zida bir nechta narsaga yo'naltirsak, bu holat bo'lingan diqqat deb ataladi. Aksincha, agar diqqat faqat bitta narsaga jamlanganda, u konsentratsiyalashgan (yig'ilgan) diqqat hisoblanadi (Jalolov, 2012).

Diqqatning bilish jarayonlaridagi ahamiyati muhimdir va u sezgi, idrok, xotira, tafakkur va hayol jarayonlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlariga hamroh bo'lsada, o'zi mustaqil ravishda borliqni aks ettirmaydi. U bilish jarayonlarini tashkil etuvchi muhim omil bo'lib, psixik faoliyatning

samaradorligini ta'minlaydi (Xaydarov, Xalilova, 2009).

Inson atrof-dagi voqelikni idrok etuvchi sezgilar odatda izsiz yo'qolmaydi. Ular birlashtiriladi, saqlanadi va kelajakda qayta tiklanadi. Bu ko'pincha biz ko'rgan narsalarni tan olish, boshdan kechirgan voqealarni xotirlash, yoki o'tmishni eslash shaklida namoyon bo'ladi.

Obyektlarni mazmunli idrok etish har doim ularni tanib olishni, ya'ni, ularning mohiyatini anglashni o'z ichiga oladi. Tanib olish, biz ilgari idrok qilgan ma'lum bir obyektning qayta tan olish holatlarida ham sodir bo'ladi. Masalan, hozirgi paytda idrok qilinayotgan obyektning kitob, ruchka, qalam yoki gul sifatida umumlashtirilgan holda tan olishimiz bunga misol bo'la oladi. Agar obyektlar shu kabi umumiy turlarga bog'lanib idrok etilmasa, mazmunli idrok haqida gapirish mumkin emas.

Idrok (persepsiya) – bu atrof-muhitdagi narsalar, voqea va hodisalar haqida tasavvur hosil qiladigan bilish, inson ongida aks etish jarayoni hisoblanadi va bu ruhiy jarayon bo'lib, uning yuzaga kelishi uchun sezgi a'zolari orqali ma'lumotlar retseptorlardan qabul qilinishi kerak.

Idrok – atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarning turli xususiyatlarini birlashtirib, ularning yaxlit obrazini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon sezgi orqali tashqi signallarni qabul qilish va ularni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, idrok ongimizda to'liq va yaxlit tasvirlarni shakllantiradi va bilish jarayonining muhim qismi hisoblanadi (Xaydarov, Xalilova, 2009).

Amaliy faoliyat nafaqat idrok jarayonida olingan bilimlarni shaxsiy tajriba vaziyatlariga bog'lashni, balki ushbu bilimlarni ushbu kontekstdan ajratib olish va umumiy shaklda foydalanishni talab qiladi. Agar inson biror narsani idrok qilsa va uning xususiyatlarini bilib olsa, u bilimni saqlab qolish va uni boshqa vaziyatlarda, kerak bo'lgan joy va vaqtda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimdir. Bu

imkoniyat idrok qilingan obyektning yo'qligi sharoitida bilimlarni tiklash imkoniyatini ta'minlaydi.

Til vositalarini o'zlashtirish jarayoni kuzatuv va idrok orqali boshlanib, tafakkur orqali chuqurlashadi va amaliyotga yo'naltirilgan bilim shakliga aylanadi. Bu jarayon psixologik tadqiqotlar orqali aniqlangan.

Idrok qilingan obrazlarni erkin tiklash shaklida xotira shakllanadi. Obyektning umumiy bilim darajasida xotirada saqlanishi va umumlashtirilgan mazmun bilan birgalikda paydo bo'lishi kuzatiladi. Bu jarayon idrok va fikrlarning birlashuvini ifoda etadi. Xususan, birinchi holda, sezgilar orqali hosil bo'lgan obraz mazmunni anglatadi, ikkinchi holda esa mazmunni tasvirlovchi obyekt asosiy ahamiyat kasb etadi.

Inson tajribalarining aks ettirilishi, muayyan shaklda saqlanishi va qo'llanilishi psixik jarayon sifatida **xotira** tushunchasi bilan ifodalanadi. Xotira jarayonida uning aksi bo'lgan unutish, xotiradan ko'tarilish yoki esdan chiqarish hodisalari ham mavjud. Xotira qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli (doimiy) shakllarga ajratiladi. Uzoq muddatli xotirada til bilan bog'liq materiallar uzoq vaqt saqlanadi va nutq jarayonida samarali foydalaniladi. Qisqa muddatli xotira esa nutqning tez va aniq shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Xotira o'z navbatida ko'ruv, eshitish, harakat va verbal shakllarga ajratiladi. Verbal xotira so'z bilan bog'liq bo'lib, boshqa xotira shakllari bilan uyg'unlashganda chet tilini o'rganishda samaradorlikni oshiradi (Jalolov, 2012).

Xotira jarayonlari bir necha bosqichlardan iborat: birinchisi – bu axborotni "muhrlash" (ya'ni, eslab qolish), keyingisi esa tan olish yoki tiklashdir. Kundalik hayot va faoliyatda inson maxsus eslab qolish vazifasini qo'ymasdan ko'p narsalarni esda saqlab qoladi. Biroq, faoliyat murakkablashgan sari inson o'z oldiga maxsus vazifalar qo'yib, maqsadli ravishda eslab qolishga o'tadi. Shu yo'sinda xotira insonning shaxsiy tajribalarini yanada

samarali boshqarish vositasiga aylanadi (Рубинштейн, 1989).

Inson aqliy faoliyatining yuksak, oliy shakli bo'lmish **tafakkur** atrofda borliqni bilish vositasidir va shu bilan birga inson oqilona amaliy faoliyatining shakllanishi uchun muhim sanaladi. Tafakkur jarayonida inson ongida fikrlar shakllanadi va ular muhim tushunchalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Tafakkur nutq – til bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu sababli inson hayvonlardan farq qiladi va ongli mavjudot sifatida ajralib turadi. Inson atrofda voqealarni ongli ravishda tushunib yetadi, ularni eslab qoladi va shunga muvofiq harakat qiladi. Tafakkur sezgi, idrok, xotira va tasavvurlarga nisbatan insonning bilim olish va amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi (Umumiy psixologiya, 2008).

Bizning obyektiv voqelik haqidagi bilimimiz sezgi va idrokdan boshlanadi. Ammo, hislar va idrokdan boshlab, haqiqatni bilish ular bilan tugamaydi. Tuyg'u va idrokdan tafakkurga o'tadi.

Sezgi va sezgilarda berilgan narsalardan boshlab, tafakkur hissiy ma'lumotlar chegarasidan chiqib, bilimimiz chegaralarini kengaytiradi. Bilimning bunday kengayishiga o'z tabiatiga ko'ra tafakkur orqali erishiladi, bu unga idrokda bevosita berilmagan narsalarni bilvosita, xulosa chiqarish orqali ochib berishga imkon beradi. Tafakkur tufayli bilimning kengayishi ham bilimning chuqurlashishi bilan bog'liq (Рубинштейн, 1989).

XXI asrda global integratsiya va axborot texnologiyalari rivoji chet tillarini o'rganish va o'rgatishni zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, talabalar auditoriyasida chet tilni samarali o'rgatish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sotsiokulturologik yondashuv chet tilni o'rgatish jarayoniga yangicha qarashni talab etadi, bu yondashuv til o'rganish jarayonida madaniyatlararo

kompetensiyani shakllantirishni ustuvor vazifa deb hisoblaydi.

Kommunikativ kompetensiya haqida ilmiy mulohaza yuritish jarayonida ijtimoiy-madaniy yondashuvlarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday nutqiy muloqot til egasining madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Boshqacha qilib aytganda, bu jarayonda verbal va noverbal, madaniy va lisoniy hodisalar o'zaro uyg'unlashib, yaxlit bir tizimni vujudga keltiradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvga A.N. Shukin quyidagicha ta'rif keltirib o'tgan bu o'qitishning yondashuvlaridan biri bo'lib, unga ko'ra, chet til darslari o'rganilayotgan tilning mamlakati va madaniyati bilan hamkorlikda olib boriladi. Chet tildagi muloqotni o'rgatish dunyoni ijtimoiy-madaniy idrok etishdagi farqlarni hisobga olgan holda madaniyatlararo muloqot sharoitida amalga oshiriladi (Щукин, 2006).

Shu o'rinda A.N.Shukinning ijtimoiy-madaniy kompetensiya xususidagi fikrlarini ham ilmiy ishimizda qisqacha bayon qilmoqchimiz. O'rganilayotgan til mamlakati, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari, shuningdek, til egalarining ijtimoiy va rejalashtirilgan xulq-atvori haqida bilimlarga ega bo'lish hamda bu bilimlardan muloqot jarayonida foydalanish qobiliyati. Bu jarayonda odat, xulq-atvor qoidalari, etik me'yorlar, ijtimoiy sharoit va til egalarining xulq-atvor stereotiplariga rioya qilinadi. Sotsiomadaniy kompetensiya kommunikativ kompetensiya tarkibiga kiradi va uning komponenti hisoblanadi.

Sotsiomadaniy kompetensiya mazmuni to'rt tarkibiy qismda ifodalanishi mumkin:

- sotsiomadaniy bilimlar (o'rganilayotgan til mamlakati, ma'naviy qadriyatlar va madaniy an'analar, milliy mentalitet xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar);
- muloqot tajribasi (muloqotning maqbul uslubini tanlash, xorijiy madaniyat hodisalarini to'g'ri talqin qilish);
- xorijiy madaniyat hodisalariga shaxsiy munosabat (shu jumladan, muloqot

jarayonida sotsiomadaniy ziddiyatlarni yengish va hal qilish qobiliyati);

- tilni qo'llash usullarini egallash (turli xil sotsial jihatdan belgilangan til birliklarini to'g'ri ishlata olish), madaniyatlararo muloqot sohalarida, ona tili va xorijiy til madaniy hodisalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglash (Щукин, 2006).

Xulosa

Bunday qobiliyatlarning mavjudligi o'quvchining shaxsiy fazilatlarini, xususan: ochiqlik, bag'rikenglik, muloqotga tayyorlik kabi xususiyatlar shakllangan bo'lishini talab

qiladi. Bag'rikenglik – bu boshqa madaniyat vakillariga nisbatan xolis bo'lish, ularning qadriyatlarini hurmat qilish; boshqa xalq urf-odatlarini va madaniy hodisalariga nisbatan ijobiy munosabat ko'rsatish, begona narsalarni rad etmaslik. Bunday yondashuv o'quvchining boshqa madaniyat vakillari bilan faol muloqotga kirishish istagida ham namoyon bo'ladi. Agar sotsiomadaniy kompetensiya shakllanmagan bo'lsa yoki yetarli bo'lmasa, bu madaniyatlararo muloqotda xatoliklar, diskommunikatsiya, ya'ni muloqotning buzilishi, noto'g'ri tushunishlarga olib keladi.

References:

1. Berman, I. M., & Bukhbinder, V. A. (1977). *Ocherki metodiki obucheniya chteniyu na inostrannykh yazykakh* [Essays on methods of teaching reading in foreign languages]. Kyiv: Vysshaya shkola.
2. Chomsky, N. (2006). *Language and mind* (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Gamezo, M. V., Gerasimova, V. S., Mashurtseva, D. A., & Orlova, L. M. (2007). *Obshchaya psikhologiya: Uchebno-metodicheskoe posobie* [General psychology: Educational and methodological guide]. Moscow.
4. Gandolfi, F. (2012). A conceptual discussion of transformational leadership and intercultural competence. *Journal of Management Development*, 31(5), 522–534.
5. Gez, N. I. (1986). Formirovanie kommunikativnoy kompetentsii kak ob'ekt zarubezhnykh metodicheskikh issledovaniy [The formation of communicative competence as an object of foreign methodological studies].
6. Gonobolin, F. N. (1972). *Vnimanie i ego vospitanie* [Attention and its development]. Pedagogika.
7. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi* [Methods of teaching foreign languages]. O'qituvchi.
8. Jalolov, J., Jo'rayev, L., Irisqulov, M. T., Nosirov, A. A., Matniyozova, I. M., Dadaxodjayeva, M. S., Raxmonov, S. I., Maqsudova, O. N., & Xan, S. (2013). O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan chet tillar bo'yicha ta'lim standarti. *Xalq ta'limi*, (4), 144.
9. Leontyev, A. N. (1972). Problema deyatel'nosti v psixologii [The problem of activity in psychology]. *Voprosy filosofii*, (9).
10. Passov, E. I. (1989). *Osnovy kommunikativnoy metodiki obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu* [Fundamentals of communicative methodology in foreign language teaching]. Russkiy yazyk.
11. Rubinstein, S. L. (1989). *Osnovy obshchey psixologii*. Vol. 1. Pedagogika.
12. Selevko, G. K. (2005). *Entsiklopediya obrazovatel'nykh tekhnologiy*. Vol. 1. Narodnoe obrazovanie.
13. Shchukin, A. N. (2006). *Lingvodidakticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'* [Linguodidactic encyclopedic dictionary]. Astrel; AST; Khranitel'.

14. Sokolov, A. N. (1968). *Vnutrennyaya rech' i myshlenie* [Inner speech and thinking]. Moscow.
15. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. (2008). O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
16. Xaydarov, F. I., & Xalilova, N. I. (2009). *Umumiy psixologiya* [General psychology].
17. Zhinkin, N. I. (1958). *Mekhanizmy rechi* [Mechanisms of speech]. APN RSFSR.